

MINISTRY OF HIGHER AND SECONDARY SPECIAL
EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN
NATIONAL UNIVERSITY OF UZBEKISTAN NAMED
AFTER MIRZO ULUGBEK



COLLECTION

of materials of the International conference on:

«PROBLEMS OF RESEARCH AND
EDUCATION OF THE UZBEK LANGUAGE»



Crossref
we use DOIs



Google
scholar

OPEN ACCESS



TASHKENT - 2022

Problems of Research and Education of the Uzbek language. A collection of scientific articles and theses of the International Scientific and Practical Conference. (December 23, 2022). - T.: UzMU, 2022. - 693 pages.

In this collection of scientific articles and abstracts of the International Scientific and Practical Conference, scientific, stylistic and practical recommendations have been developed on a number of issues, such as: analysis of theoretical and practical issues of Uzbek linguistics, the study of the Uzbek language in harmony with the problems of Turkic studies, increasing the prestige of the Uzbek language at the international level, scientific research on the relationship of the Uzbek language with other languages, the Uzbek language and Turkic studies in the world, the development of scientific, methodological and practical recommendations on a number of issues, such as establishing broad contacts with centers, developing effective methods for teaching the Uzbek language, developing such areas as applied linguistics and computational linguistics in Uzbek linguistics, determining the prospects for international relations in the field of linguistics, determining the stages of the historical development of the Uzbek language.

This collection of scientific articles and abstracts is intended for basic doctoral students, doctoral students, independent researchers, professors, teachers, graduate students, students and specialists in the field of linguistics, Turkology, Language education.

Managing Editor: DSc., Prof. Mukhabbat Kurbanova

Editorial team: DSc., Prof. Alfiya Yusupova (Russia); DSc., Prof. Hikmat Korash (Turkey); Prof. Ravshangul Avakova (Kazakhstan); DSc., Prof. Karligash Serekenova (Kazakhstan); DSc., Prof. Ainur Oz Ozjan (Turkey); C.e.s., Prof. Gulchehra Keldiyorova; Ph.D. Makhfuzakhan Khomidova; Ph.D. Tursunoy Yandasheva; Ph.D. Isroilova Saodat; Teacher Namaz Rasulov; Teacher Sojida Tursunova; Teacher Mastura Karimova; Teacher Dilnoza Sarbarova.

The authors are responsible for the content and quality of the articles and abstracts included in the collection.

U.R. XALMUXAMEDOVA. ARAB YOZUVIDAGI MUMTOZ ADABIY MANBALARNI O‘QITISHDA TALABALAR MUSTAQIL ISHLARINI TASHKIL ETISH.....	395
N.I. BEKMUHAMEDOVA. O‘ZGA TILLI GURUHLARDA TIL O‘QITISHDA INFOGRAFIKADAN FOYDALANISH.....	402
G.A. ASILOVA. O‘ZBEK TILINI XORIJIY TIL SIFATIDA O‘QITISHDA GAPIRISH KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH.....	408
M.T. AXMEDOVA, N.E. AXMEDOVA, M.M. MANSUROVA. O‘ZBEK TILINING DAVLAT TILI SIFATIDAGI NUFUZI VA MAVQEINI TUBDAN OSHIRISH BO‘YICHA TAVSIYALAR.....	416
D.A. MIRVALIYEVA. YOZISH KO‘MIKMASINING PSIXOLOGIK ASOSLARI.....	425
N.G. ALAVUTDINOVA. IJODIY FIKRLASH KO‘NIKMASINI SHAKLLANTIRISH MUAMMOLARI	431

SECTION 5. METHODOLOGY OF THE UZBEK LANGUAGE

M.M. KURBANOVA, Z.F. KARIMOVA. BADIY MATNDA MUROJAAAT SHAKLLARI	440
Z.T. TAHIROV. BADIY HUKMNI YUZAGA CHIQRUVCHI LINGVISTIK-SEMANTIK VOSITALARDA SUBYEKTIV MUHOSSABATNING AKS ETIШИ.....	449
G. KELDIYOROVA. ERKIN VAHIDOV SHE‘RIYATIDA OKSYUMORON OXYUMORON IN THE POETRY OF ERKIN VAHIDOV.....	464
Ш.М. ИСКАНДАРОВА, Д.Х. ҚЎЛДАШЕВА. ФУРҚАТ ҲАЗАЛЛАРИДА МЕТАФОРАНИНГ ЎРНИ.....	470
N.Sh. INOGAMOVA. IQBOL MIRZO SHE‘RLARIDA BADIY TAKRORNING LINGVOPOETIK XUSUSIYATLARI.....	477
F.R. TOPILDIYEVA. FARIDA AFRO‘Z SHE‘RIYATI LEKSIKASI XUSUSIDA	484
D.M. NASRIYEVA. ISAJON SULTON BADIY MATNIDA QO‘LLANGAN FITONIM VA ORNITONIMLARNING LINGVOPOETIK TAHLILI	492
S.A. TURSUNOVA. MUROD MUHAMMAD DO‘STNING “GALATEPAGA QAYTISH” ASARIDA IRONIK MAZMUN IFODALASHGA XIZMAT QILGAN LISONIY (INTONATION-FONETIK) VOSITALAR	500
D.N. SARBAROVA. USMON AZIM SHE‘RLARIDA IJTIMOY DEYKSISNI HOSIL QILUVCHI BIRLIKLAR	510
M.A. KARIMOVA. MUHAMMAD YUSUFNING “VATANIM” SHE‘RIDAGI ALLUZIV NOMLAR XUSUSIDA.....	517

O‘ZBEK TILINI XORIJIY TIL SIFATIDA O‘QITISHDA GAPIRISH KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH

Asilova Gulshan Asadovna

Pedagogika fanlari doktori, dotsent.
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
gulshanasilova@gmail.com

Annotatsiya: Gapirish nutqiy faoliyatning murakkab, ko‘p qirrali jarayonini o‘z ichiga olgan turi bo‘lib, uning vositasida og‘zaki verbal muloqot amalga oshiriladi. Gapirishga o‘rgatish va umuman og‘zaki nutq ko‘nikmalarini shakllantirish tilni o‘rgatishda eng qiyin vazifalardan hisoblanadi. Bu insonning o‘zga til vositalari yordamida fikr va his-tuyg‘ularini mustaqil tarzda ifodalashi bilan bog‘liq. Ongli ravishda nutq yaratish va til shakllarini tahlil qilish til o‘rganishning dastlabki bosqichlariga xosdir. O‘zbek tilini o‘zga til va madaniyatlar vakillariga o‘rgatish jarayonida gapirish nutqiy faoliyatning tinglab tushunish ko‘nikmasi bilan bir vaqtda rivojlantiriladi. Ta’lim natijasi esa til va nutq materialini intuitiv tarzda egallashga olib kelishi kerak. Gapirish ko‘nikmasi ikki turda, ya’ni monologik va dialogik nutqda namoyon bo‘ladi. Maqolada gapirish mexanizmlari, monologik va dialogik nutq ko‘nikmalarini rivojlantirish xususiyatlari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: gapirish, gapirish mexanizmlari, nutqiy vaziyat, dialogik nutq, monologik nutq, tasvir, hikoya, mulohaza.

Annotation: Speaking is a type of speech activity that includes a complex, multifaceted process in which oral verbal communication is carried out. Conversational language training and formation of oral speech skills in general are among the most difficult tasks in language teaching. This is due to the fact that a person independently expresses his/her thoughts and feelings by means of another language. Conscious speech formation and analysis of language forms are



characteristic of the early stages of language learning. In the process of teaching the Uzbek language to representatives of other languages and cultures, speaking skills is developed simultaneously with the skills of listening and understanding of speech activity. As a result, language training should lead to intuitive acquisition of language and speech material. Speaking skills manifest themselves in two types, namely in monologue and dialog speech. The article analyzes the mechanisms of speech, the features of development of monologue and dialog speech skills.

Keywords: speaking, the mechanisms of speech, speech situation, dialog speech, monologue speech, description, story, reasoning.

Gapirish va tinglab tushunishning qiyosiy tahlili ushbu ikki faoliyatning nafaqat chambarchas bog‘liqligini, balki ularning o‘qish va yozish bilan ham o‘zaro aloqadorligini ko‘rsatadi. Yozuv yangrayotgan nutqqa tayanib, til tovushlarining grafikada aks ettirilishi, uning saqlanishi va keyinchalik ushbu axborotdan foydalanilishini ko‘zda tutadi. O‘qish esa gapirishdan yozishgacha bo‘lgan jarayonning oralig‘ida har ikkalasining belgilarini birlashtiradi. Har bir nutqiy faoliyat turi odatda bir qancha analizatorlarning birga ishlashi bilan ta‘minlanadi, biroq har birining vazifasi alohida ajralib turadi, analizatorlar o‘rtasidagi aloqa esa nutqiy muloqotning bir shaklidan ikkinchisiga o‘tganda o‘zgarib turadi. Masalan, eshitish va nutq yaratish analizatorlarining o‘rtasidagi aloqa ko‘plab omillarga, birinchi o‘rinda aqliy faoliyatning murakkabligi, muloqot shakli (og‘zaki yoki yozma), matnning tili murakkabligi, so‘zlashuvchining nutqiy tajribasi kabilarga bog‘liq [Гальперин, 2007; 29].

Gapirishning quyidagi turlari farqlanadi: 1) *tashabbusli, faol gapirish* – so‘zlamochi bo‘layotgan insonning ichki motivlari, niyatidan kelib chiqadigan nutq, ya‘ni uning o‘z tashabbusi bilan, mustaqil tarzda yaratgan nutqi; 2) *reaktiv, javob tariqasida gapirish* – suhbatdoshning so‘zlashi yoki savoliga javob bo‘ladigan

nutq; 3) *reproduktiv, taxminiy gapirish* – yodda qolgan matnni aytib berishdan iborat nutq [Гальскова, 2006; 233].

Gapirishning quyidagi mexanizmlari mavjud.

1. *Sabab (motiv)*. Avvaliga insonda nimanidir aytish ehtiyoji, maqsad paydo bo‘ladi.

2. *Dasturlash (modellashtirish)*. Aytiladigan gapning asosi, modeli xayolan tuziladi.

3. *Qurish*. Aytiladigan jumla fikrda tuziladi, uning uchun zarur grammatik shakl, tovushlar, so‘zlar, ohang tanlanadi.

4. *Gapirish (so‘zlash)*. Fikrlar til orqali ifodalanadi.

5. *Nazorat*. Aytilgan jumladan xatolar izlanadi, tuzatiladi. Namuna sifatida til me‘yorlari olinadi. Bunday namunalarni inson gapirishni o‘rganganda, keyinchalik ta’lim jarayonida o‘zlashtiradi. Nazorat asosan avtomatik tarzda yuz beradi.

Gapirish ko‘nikmasi ikki turda – monolog va dialogda namoyon bo‘ladi. Bu turlar muloqot ishtirokchilarining nutqiy jarayondagi roliga qarab farqlanadi. Monologik nutqda muloqot ishtirokchilarining har biri muayyan vazifani – axborotni uzatish (nutq yaratish) yoki axborotni qabul qilish (retsepsiya) funksiyasini bajaradi. Dialogda muloqotning ikkala ishtirokchisi navbatma-navbat so‘zlovchi va tinglovchi rolini bajaradi.

Monolog – bu bevosita gapirish, dialog esa gapirishning tinglab tushunish bilan birga amalga oshiriladigan turidir. Monolog – bir shaxsning kimgadir qaratilgan nutqi bo‘lib, unda fikrni aniq, to‘liq, tushunarli tarzda ifodalash zarur. Monologda so‘zlovchi o‘zining nutqini o‘zi rejalashtiradi, kengaytiradi, til vositalarini tanlaydi. Monolog uzviy va mantiqli bo‘lsa, dialog vaziyatga qarab tuziladi. Dialog nisbatan tez yuz beradigan nutq almashinuvi bo‘lib, uning har bir bo‘lagi replika (luqma) deyiladi va bir replika boshqasiga bog‘liq bo‘ladi.

Monologik nutqning o‘ziga xos xususiyati uning bog‘langan, uzviy matn ekanligidadir. Bog‘lanishli nutq yaratish malakasi og‘zaki nutqni o‘zlashtirganlik

belgisidir. Og‘zaki nutqni o‘stirish asosi sifatida mavzu tanlanadi. Darsliklarning aksariyati aynan nutqiy mavzular asosida quriladi (Shaharda. Transportda. Do‘konda. Oshxonada. va b.). O‘quvchini o‘zi haqida gapirishga undaganimizda ham unga mavzu beramiz.

Monologik nutq reproduktiv va produktiv bo‘ladi. Tinglangan, o‘qib chiqilgan matnni so‘zlab berish yoki uning mazmunini yozib berish reproduktiv nutq sanaladi. Produktiv nutq deb berilgan mavzuda gapirishga aytiladi. Reproductiv nutq tabiiy muloqotda, o‘quv jarayonida (masalan, dars mavzusini tushuntirib berish) zarur shakl hisoblanadi. Biroq monologik nutqni o‘stirishda faqat reproduktiv gapirish bilan cheklanib bo‘lmaydi.

Monologik nutq quyidagi xususiyatlari bilan farqlanadi: 1) nutqning davomiyligi; 2) nutqning uzviyligi, mantiqliligi; 3) mazmunning ma‘lum darajada tugallanganligi; 4) nutqning kommunikativ yo‘naltirilganligi; 5) mavzuning aniqligi; 6) sintaktik jihatdan murakkabligi.

Monologlar tuzilishi va mazmuni jihatidan uni tuzadigan shaxsning oldida turgan kommunikativ vazifa va maqsadga ko‘ra bir-biridan farqlanadi. Monologik nutqning turlari tabiiy muloqotda aralash holda uchrasa-da, har birining mazmun jihatidan yo‘nalishi va kompozitsiya-tuzilish borasida muayyan belgilari bilan farqlanadi.

1. *Tasvir* – nutq predmetini uning belgilarini sanash orqali tavsiflash. Bunday monologda qismlarning ketma-ketligi nisbatan erkin, asosan hozirgi zamonda beriladi. Matnni tuzishda qo‘shma fe‘llar, aniqlovchili birikmalar, qiyosiy birikmalar, qarama-qarshi tavsiflar, gaplarda leksik-semantik va sintaktik aloqa vositalari qo‘llanadi. Bunday monologlarda tabiat, inson portreti, bino, uy, shahar va shu kabilar tasvirlanadi. Tasvir konkret yoki umumiy bo‘lishi mumkin. Tasvirlash uchun asosan darak va atov gaplar qo‘llanadi.

2. *Hikoyada* hodisalarning ketma-ketligi ifodalanadi, joy va sharoit, ishtirok etuvchi shaxslar o‘zgaradi, bir harakat va holatdan boshqasiga mantiqiy o‘tiladi.

Nutq dinamikaga, harakatga boy bo‘ladi. Fe‘l shakllari, sodda va qo‘shma gaplar keng qo‘llanadi.

3. *Mulohaza* predmetlar, hodisalar haqida yangi bilimga ega bo‘lishning o‘ziga xos jarayonini ifodalaydigan xulosa ko‘rinishidagi xabardir. Uning asosiy xususiyatlari faktlar orasidagi sabab-oqibat munosabatlarini aniqlash, hodisalarning aloqalari, fikrning aniq mantiqqa rioya qilishi, tuzilishining o‘ziga xosligi (kirish, dalillash, xulosa) tashkil qiladi.

Monologik nutqning har bir turi ta‘lim bosqichi, muloqot vaziyati, o‘quvchilarning muloqotga ehtiyoji bilan belgilanadi. Monolog tuzishga o‘rgatishni dastlabki bosqichda tabiat, xona, shahar, inson tasviridan boshlab, hikoya elementlarini qo‘shish, oraliq bosqichlarda asosan hikoya tuzishga o‘rgatish va yuqori bosqichlarda hikoya va mulohaza bilan ishlashga o‘rgatish tavsiya etiladi [Чеснокова, 2015; 97].

Monologik nutq kabi, dialogik nutq ham muayyan maqsad va vazifalarga ega. Biroq dialogik birlikda nutqiy yaxlitlik ikki yoki bir necha ishtirokchi tomonidan yaratiladi, shu bois dialogda har bir ishtirokchi tinglovchi va so‘zlovchi rolini bajaradi. Dialogga emotsionallik, ekspressivlik, harakatlar va imo-ishoralarni faol qo‘llash xosdir. Tabiiy muloqotda dialog muayyan vaziyatda yuz beradi. Dialog jarayonida suhbatdoshlarning nutqini oldindan rejalashtirib bo‘lmaydi.

O‘zga tilda dialogda ishtirok etish til o‘rganuvchi uchun qiyin vazifa hisoblanadi. Dialog – replikalar (luqmalar) tizimi. Dialogda suhbatdoshning, adresatning kimligi, uning reaksiyasi (yuz ifodasi, qo‘l harakatlari) muhim. Dialog muayyan nutqiy vaziyatda sodir bo‘ladi va aksariyat hollarda dialogik nutq vaziyatga xos sharoitlar bilan to‘ldiriladi, shuning uchun ko‘p narsalar so‘zsiz ham tushuniladi.

Dialogning luqmalari qisqa, masalan, so‘z, to‘liqsiz gap, qoliplardan iborat bo‘lishi mumkin. Dialogni oldindan rejalashtirib bo‘lmaydi, chunki birinchi luqmadan keyin reaksiya qanday bo‘lishi noma‘lum. Shuning uchun dialogni

mexanik tarzda yodlash tavsiya etilmaydi. Faqat qolip dialoglarni yodlash mumkin.

O‘quvchilarda suhbatni boshlash, davom ettirish, uni rivojlantirish, shuningdek, uning mavzusini o‘zgartirish ko‘nikmalarini hosil qilib borish kerak. Ularga javob luqmalarning turlicha variantlarini tuzishga undaydigan topshiriqlar berish kerak: “Hayronligingizni bildiring”, “Roziligingizni bildiring”, “Luqmaga javoban nimanidir xabar qiling”, “E’tiroz bildiring”, “Fikrni aniqlashtiring”, “Rag‘batlantiring” va h.k.

Dialogik nutqqa o‘rgatish uchun dialoglarning quyidagi turlari tavsiya etiladi: 1) xabar almashish; 2) axborot so‘rash yoki uni aniqlashtirish; 3) birgalikdagi harakatlarni rejalashtirish; 4) taassurotlarni, fikrlarni almashish; 5) bahs, munozara.

Y.I. Passov tomonidan monologik nutq ustida ishlashning quyidagi bosqichlari ishlab chiqilgan.

1-bosqichda mavzu bo‘yicha 1 ta tugallangan fikr bildirish malakasi hosil qilinadi.

2-bosqichda fikrni mantiqiy kengaytirish, unga izoh berish o‘rgatiladi.

3-bosqichda yangi mantiqiy vazifalar bajariladi: mulohaza qilish, taqqoslash, umumlashtirish malakalari shakllanadi, axborot hajmi sezilarli darajada oshiriladi [Пассов, 1977; 132].

Barcha bosqichlarni fonetik, grammatik, leksik jihatdan to‘g‘ri nutqni shakllantirish birlashtiradi.

1-bosqichda topshiriqlarni tanlashda quyidagilarni hisobga olish zarur:

1) namuna yordamida yoki tinglash va ko‘rish orqali bir-ikki gap bilan fikrni ifodalash ko‘nikmasini shakllantirish;

2) matnga tayanib kengaytirilgan nutq yaratishga o‘rgatish (10 tagacha gap);

3) o‘z fikrini tayanch materialsiz ifodalashga o‘rgatish.

Keyingi bosqichda o‘quvchi o‘qib chiqilgan yoki tinglangan matnni qayta hikoya qilishga, xabar yaratishga, tavsif berishga, hikoya tuzishga va o‘zining nuqtayi nazarini dalillash hamda asoslashga harakat qiladi.

Monologik nutq ko‘nikmalarini quyidagilar hosil qiladi:

- 1) savollarga to‘liq javob berish;
- 2) tanish matn bo‘yicha vaziyatli xabar berish;
- 3) rasmni tasvirlash;
- 4) rejaga tayanib, keyin esa tayanmasdan gapirish;
- 5) bir necha matn asosida gapirish;
- 6) yangi mavzu asosida mulohaza shaklida nutq yaratish.

Monologik nutqqa o‘rgatishda markaziy o‘rinni qayta hikoya qilish egallaydi.

Qayta hikoya qilish matnga yaqin va erkin, to‘liq va qisman bo‘lishi mumkin. Qayta hikoya qilishga tayyorlanish quyidagi bosqichlardan iborat:

- 1) reja tuzish;
- 2) tayanch so‘zlarni yozib chiqish;
- 3) abzatlarni gaplar bilan almashtirish va h.k.

Amaliyotda qayta hikoya qilishning o‘quv variantlari qo‘llanadi: o‘z so‘zlari bilan hikoya qilish; mavzudan bexabar shaxsga gapirib berish; vaqt, vaziyat, personajlarni o‘zgartirib gapirib berish.

Dialogik nutqni o‘stirish uchun quyidagi mashqlar tavsiya etiladi:

- 1) berilgan 2 ta javob luqmasidan tayanch luqмага ma’no jihatidan mosini toping;
- 2) berilgan javob luqmasiga tayanch luqmani ayting;
- 3) taklifga rozilik, salomlashishga salomlashish bilan javob bering;
- 4) aytilgan fikrga qo‘shiling yoki e’tiroz bildiring;
- 5) xabarni aniqlashtirishni talab qiling;
- 6) aytilgan fikrni to‘ldiring, asoslang, aniqlashtiring.

Dialogik nutq ko‘nikmalarini shakllantirishda kommunikativlik tamoyiliga asosan o‘quvchilarni tezroq nutqiy faoliyatga kiritishga yordam beradigan vaziyatlarni yaratish kerak. Asosiy maqsad suhbatdoshlar o‘rtasida tabiiy, maqsadli xabar almashinuvini yo‘lga qo‘yishdan iborat [Chaney, 1998]. Darsda shunday

sharoit yaratish va uni kengaytirish kerakki, o'quvchilarda o'rganilayotgan tilni birlari bilan va boshqalar bilan tabiiy muloqotda qo'llashga ehtiyoj tug'ilsin.

Xulosa qilib aytganda, gapirishga o'rgatish nutq materiali bilan ishlashning quyidagi bosqichlarida amalga oshiriladi.

1. *Ko'nikmalarni shakllantirish bosqichi*: leksik va grammatik ko'nikmalarni shakllantirish. Bu bosqich matnoldi bosqichi deyiladi, lekin material matnning o'zidan olinadi.

2. *Ko'nikmalarni takomillashtirish bosqichi*. Bunda o'quv matni, ya'ni birinchi bosqichda to'liq o'zlashtirilgan materialda qurilgan matn bilan ish olib boriladi. Bu bosqich matn bosqichi deyiladi.

3. *Nutq malakasini rivojlantiruvchi murakkab bosqich* matndan keyingi bosqich deyiladi.

Uchala bosqichda darslar muayyan nutq materialini o'zlashtirish bo'yicha yaxlit ish ko'lamini tashkil qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Гальперин И.Р. Текст как объект лингвистического исследования. – 5-е изд., стер. – Москва: КомКнига, 2007. – 144 с.
2. Гальскова Н.Д., Гез Н.И. Теория обучения иностранным языкам: Лингводидактика и методика / учебное пособие. – Москва: Академия, 2006. – 336 с.
3. Чеснокова М.П. Методика преподавания русского языка как иностранного / учебное пособие. – Москва: МАДИ, 2015. 132 с.
4. Пассов Е.И. Основы методики обучения иностранным языкам. – Москва: Русский язык, 1977. – 216 с.
5. Chaney, A.L., and T.L. Burk. 1998. Teaching Oral Communication in Grades K-8. Boston: Allyn&Bacon.